

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |     |
|--|-----|
| <b>G.A.Saparbayeva</b>   |     |
| Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar yozish qobiliyatini shakllantirish.....                       | 313 |
| <b>H.M.Asadov</b>  |     |
| Mavzu, mazmun va lirik qahramon talqini .....  | 318 |
| <b>A.A.Yarkulov</b>  |     |
| Arxeologiya merosi obyektlarini konservatsiyalash to'g'risida ba'zi mulohozalar .....  | 322 |
| <b>H.A.DJurayev, N.N.Nabiyeva, Sh.F.Latipov</b>  |     |
| Abdulla Qodiriy ijodida teatr san`atining o'rni .....  | 329 |
| <b>J.DJ.Ashurov, E.X.Bozоров</b>   |     |
| Oliy ta'lim muassasalarida "Yadro tibbiyotida radiatsion xavfsizlik" mavzusini o'qitishda muammoli vaziyat metodini qo'llash ..... | 332 |
| <b>D.M.Yuldasheva, S.S.Nishonova</b>   |     |
| Bolalar ertak matnlarining kognitiv-semantik xususiyatlari.....  | 336 |
| <b>M.I.Imomaliyeva</b>   |     |
| Amiriy ijodida Yusuf obrazi.....   | 339 |
| <b>G.M.Qosimova, M.I.Ne'matova</b>   |     |
| Inson tabiati va xarakterini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik xususiyatlari.....   | 343 |
| <b>N.Maqsudov</b>  |     |
| Yoshlar huquqiy ongi va madaniyatini oshirish – demokratik davlatning muhim belgisi .....  | 345 |
| <b>S.A.Olimjonov</b>   |     |
| Erix Mariya remarkning "Uch og'ayni" romanida ifoda va talqin .....  | 347 |
| <b>Z.A.Akbarova, N.Mamasoliyeva</b>  |     |
| O'zbeklar olam Lisoniy manzarasida "Sabr" konsepti.....  | 351 |
| <b>I.S.Mannopov</b>  |     |
| Xoja Ahmad Yassaviy ijodida munozara janri .....   | 354 |

**MADANIYAT VA SAN'AT INSTITUTI TALABALARINING HAVASKORLIK  
SSENARIYLAR YOZISH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH****ФОРМИРОВАНИЕ УМЕНИЯ СТУДЕНТОВ ИНСТИТУТА КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВ  
ПИСАТЬ ЛЮБИТЕЛЬСКИЕ СЦЕНАРИИ****FORMATION OF AMATEUR SCRIPTS ABILITY OF STUDENTS OF THE INSTITUTE OF  
CULTURE AND ARTS****Saparbayeva Gulshira Abatbayevna<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Saparbayeva Gulshira Abatbayevna**– O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Nukus filiali dotsenti "Madaniyat va kutubxona  
faoliyati" kafedrasini mudiri**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada madaniyat va san'at instituti talabalariga havaskorlik ssenariylarini yozish qobiliyatini rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan pedagogik maslahatlar berilgan. Asosan, talabalarning qobiliyat deb atalgan ijodiy mehnat mahsuli va uning o'ziga xos xususiyatlariga alohida urg'u berilgan. Shunki ssenariy jozish (havaskorlik yoki professional) insondan alohida qobiliyatni talab qiladi. Ijodkor talabalarning qobiliyatini esa soha pedagoglari sayqallantirishi va mukammallashtirishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan pedagogik tavsiyalar va takliflar berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье даны педагогические советы института культуры и искусства по развитию и совершенствованию навыков написания любительских сценариев. В основном, особое внимание уделялось специфике творческого продукта и труда учащихся. Сценарии требуют особого мастерства и ответственности. С другой стороны, творческий потенциал студентов может быть отполирован и усовершенствован педагогами в этой области. С этой точки зрения даются педагогические рекомендации и предложения.*

**Abstract**

*This article provides pedagogical advice on the development and improvement of the ability to write amateur scripts in the Institute of culture and art. Basically, special emphasis was placed on the specifics of the creative work of students. So that the script (amateur or professional) requires a person to have a special potentials. And the ability of creative students can be polished and perfected by educators in the field. At the same time, pedagogical recommendations and suggestions are given.*

**Kalit so'zlar:** qobiliyat, ijodkorlik, ssenariy yozish, tarbiyalash, rivojlantirish, havaskorlik.**Ключевые слова:** творчество, написание сценариев, воспитание, развитие, самодеятельность.**Key words:** creativity, script writing, upbringing, development, amateur.**KIRISH**

Havaskor talaba ssenarist juda ko'p kitob o'qishi, katta ma'lumotlar bazasiga ega bo'lishi kerak. U ko'p kitob o'qish orqali ma'lumotlarga ega bo'lish bilan bir qatorda ssenariyda stilistik va orfografik jihatlarni ham o'zlashtirib boradi. So'zlarni bir-biriga ulab gap tuzish, ko'z oldiga kelgan narsani ifodalashda, qog'ozga tushirishda kuzatish usuli katta samara beradi. Masalan, o'qituvchi topshiriq beradi: "Tashqariga qarang. Yomg'ir yog'yapti. Ana shu holatda o'z ko'zlariningiz bilan ko'rayotgan holatlarni tasvirlab yozing". Bu topshiriq talabani atrofni sinchkovlik bilan kuzatishga va atrofda bo'layotgan voqealarni qanday so'zlar bilan ifodalashga urinib ko'rishga undaydi. Bunda talabada qobiyat talab qilinadi yoki shakllantiriladi. "To'g'ri shakllantirish" jumlasini biroz noodatiy tuyulishi mumkin. Ammo, madaniyat va san'at instituti pedagogik mazkur vazifani bajarishi shart. U ijodkor shaxs tarbiyachisidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqolani ilmiy o'rganishda mutaxassislardan Rustamov V., Muhamedaliyev Haydarlarning va pedagogik jihatlari bo'yicha Yo'ldoshev O., Zufarova M., Xodjaev B., Jo'rayev B., Asqarova O., Nishonov M., Kurbanova Z., Muminova D., Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Sodiqov H.M., Primov Sh.Q., Zarmasov Sh.R. Ma'murov B., Ziyayevlarning ilmiy-tadqiqot ilshlaridan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ssenariy yozishga undashga oid juda ko'p mashg'ulotlar guruhli va yakka tartibda amaliy jihatdan o'rganishni talab etadi. Ssenariy yozishga o'rganishning eng asosiy shartlaridan biri ham ma'lumotlar bazasini kengligi, so'zlarni tuzishdagi mahoratning kuchliligi, sahnaning qonuniyatlarini yaxshi bilishdir[1:64]. Mazkur qonuniyatlarni o'rganish asnosida madaniyat va san'at sohasi talabalari orasida havaskorlik ssenariylarini yozish qobiliyati rivojlanadi. Endi qobiliyat tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Qobiliyat – shaxsning individual psixik xususiyati bo'lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish subyektiv shart sharoitini ifodalovchi individual psixologik sifatlar yig'indisidir. Qobiliyat insonning hayotiy faoliyati davomida shakllanadi. Taniqli olim Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb ta'riflagan. Bizga ma'lumki, bilim bu ilmiy mutoalalar natijasidir. Qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishiga xos bo'lgan xususiyatdir. Qobiliyat bilim olish uchun shart-sharoit yaratadi. Tug'ma qobiliyat zehn deb atalsada, iqtidor, iste'dod, donolik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir. Ijodkorlik bu sifat jihatidan yangi, original, takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir. Ijodkorlik mahsuldor, evristik, kreativ turlarga bo'linadi. Mahsuldor ijodkorlikda har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi. Evristik ijodkorlik jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni o'zlashtirishni anglatadi. Kreativ ijodkorlik yangi nazariyalarni yaratadi. Qobiliyat umumiy (aqliy faollik, tanqidiylik, tahlil qilish, diqqatni jamlash, e'tiborlilik), maxsus (tashkilotchilik, loyihalashtirish, matematik, ijodiy, badiiy, musiqiy) turlarga bo'linadi.

Qobiliyatning yuqori darajasi talant deb yuritiladi. Talant – biror faoliyatni muvaffaqiyatli mustaqil va mukammal bajarishni ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasidir [2:323].

Qobiliyat deb, shaxsning muayyan faoliyat turini muvaffaqiyatli bajarishga bo'lgan layoqat darajasini ifodalaydigan, turmush jarayonida hosil qilingan individual xususiyatlar yig'indisiga aytiladi. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma, malaka orttirish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Lekin bilim, ko'nikma va malaka orttirish qobiliyat emas, balki u ularni o'zlashtirishdagi layoqati, mahoratida namoyon bo'ladi, ular asosida bilim, ko'nikma, malakalar osonlik bilan egallab olinadi. Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Voqelikdagi narsa va hodisalarni idrok etishda, masalan, ranglarni tovlanishidagi nozik farqlarni ajratishda, narsalarni aniq ko'rishda, absolyut eshitish (musiqani farqlashda), kuzatuvchanlikda, xotirada, fikrlash (tez, mustaqil) jarayonida ixtirochilik va ijodda yaqqol ko'rinadi. Qobiliyat kishining muayyan faoliyatga bo'lgan layoqatidir.

Ssenarist ham qobiliyatli bo'lsagina o'z ishining ustasi bo'ladi. Ssenariynavis – deydi, Haydar Muhamedaliyev: “Birinchil navbatda, inson psixologiyasini, ruhiyatini yaxshi bilishi kerak. Adabiyot va san'atni oddiygina emas, sevib o'rganishi zarurat. Zamon siyosatidan bir siyosatdon darajasida xabardo bo'lishi kerak”[3:6]. Bu degani qobiliyat mukammallik darajasiga qaray borishi kerak deganidir. Kishilar turli sohalardagi faoliyatlarida mehnat, o'yin, o'qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo'lsa, boshqalarniki esa kam unum bo'ladi. Ba'zi odamlar o'z ishlarida ijodiy, original usullarni ko'proq qo'llasa, ba'zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko'rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlari qandayligini aniqlab olamiz[4:295]. Talabning qobiliyatini aniqlash esa – pedagogning asosiy vazifasi hisoblanadi. Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmaydi deydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lish, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi. Uning fikricha, tarbiya jarayoni tajribali pedagog, o'qituvchi tomonidan tashkil etilishi muhim. Chunki har bir odam ham baxtni va narsa-hodisalarni o'zicha bila olmaydi.

Unga o'qituvchi lozim. Forobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb biladi. Forobiy ta'lim va tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. Ta'limni – insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya – muayyan hunarni egallash uchun zarur bo'lgan axloq normalari va amaliy malakalarni o'rgatishdir, deydi olim. Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilangina bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo'lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo'lishi o'rganishdir[5:217].

Ssenariy yozadigan talaba, avvalo, yozishni havaskorlik to'garaklari, kichik-kichik tadbirlar, ommaviy-tamoshalar uchun yozib boshlaydi. Bunda Farobiy ta'kidlaganidek, pedagog, ya'ni soha mutaxassisi unga yordam beradigan bosh omildir. U talabada yozish bilan birga dunyoqarashni ham tarbiyalab, uni yetilishtirib boradi. Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi. O'z navbatida, dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi. Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi.

Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi[6:149].

Ssenariy ilmiylik qoidalariga amal qiladi. Ammo ssenariyda badiiy tafakkur hal qiluvchi unsur hisoblanadi. Ssenariy – adabiy tur sifatida dramaturgiyaga yaqinligi bilan boshqa adabiy turlardan keskin farq qiladi. Chunki ssenariy, dramatik asar, yakka o'qish bilan bir qatorda ekranlashtiriladi, sahnalashtiriladi. Ssenariy esa sahnalarda ommaviy teatrlashtirilgan holda kino, tele va boshqa ekranlar uchun kinofilm, telefilm, videofilm, teleseriallar shaklida syomka, montaj qilib tomoshabinlarga havola etiladi. Ssenariy o'z badiiy ssenariy asarini yakka holda o'qish uchun ham to'liq badiiy tasvirlar bilan yozish kerak[7:7].

Bu degani madaniyat va san'at sohasi talabasini faqat badiiy adabiyotlar bilan ta'lim-tarbiya olishini belgilamaydi. Ta'limning nazariy va amaliy taraflarini talabaga teran o'rgatish zaruriyati yuzaga kelaveradi. Shunki, madaniyat va san'at sohasi inson ijodi bilan amalga oshiriladigan jarayonidir. Bu esa faqat aqliy emas idrokni ham tarbiyalashni talab qiladi. Arastuning fikricha, tarbiyaning maqsadi, uning fikricha jonning olim tomonlarini – aql va irodani kamol toptirishdan iborat edi. Har bir moddada rivojlanish imkoniyati bor bo'lganidek, insonga ham tabiat faqat qobiliyatlarning boshlang'ichinagina beradi, insonda kamol topish imkoniyati tabiatda mavjuddir va bu imkoniyat tarbiya vositasi bilan ro'yobga chiqariladi. Tabiat jonning uch xilini bir-biri bilan chambarchas bog'lab qo'ygan, biz ham tarbiyada tabiat belgilab bergan yo'ldan borib, jismoniy, axloqiy va aqliy tarbiyani bir-biri bilan chambarchas bog'lab olib borishimiz lozimligini uqtiradi. Arastu o'z pedagogik qarashlarida iroda, faoliyatni asos qilib olgani holda, aqliy tarbiya sohasida axloqiy ko'nikmalarga katta ahamiyat beradi. Tabiiy iste'dod, shu bilan birga, ko'nikma orttirish (matlub harakatlarni o'rganish, tez-tez takrorlab turish) va aql – bular axloqiy tarbiyaning uch manbaidir, deydi. Arastuning qayd etishicha, har qanday istak va faoliyatda kamchilik, ortiqchalik va o'rtachilik bo'ladi.

Shuning uchun ham hamma narsadan faqat o'rtachilik, faqat muvozanat yaxshi va foydalidir. Demak, hamma narsada ortiqchalikka ham, kamchilikka ham yo'l qo'ymaydigan xatti-harakat yaxshilikning nishonasidir. Mana shunday xattiharakatni hosil qilmoq uchun ko'proq mashq qilish kerak, degan fikrlarni olg'a surdi [8:174].

Arastu fikrini keltirishdan maqsad istak har bir faoliyatning kaliti ekanligini ta'kidlashdir. Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar jozish qobiliyatini shakllantirishning eng qiyin tarafi ham shu. Ya'ni talabalarining havaskorli ssenariylarin yozishga istaklarini vujudga keltirishdir. To'g'ri ta'lim orqali talabaga avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar shakllatitiriladi. Ta'lim o'qituvchi va talabalarining birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakteiga ega, ya'ni unda ikki tomon o'qituvchi va talaba faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilim; ko'nikma va malakalarni singdiradi, talaba esa uni faol o'zlashtirib oladi. Bildirish, bilish murakkab, qiyin, ziddiyatli jarayondir. Bu jarayonda inson psixikasiga tegishli sezgi, idrok tassavvur va tafakkur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi va muhim rol o'ynaydi. Ta'lim berish, yoshlarga bilim berish, ularda ko'nikma va malakalami hosil qilish, ya'ni haqiqatlamini ocha olishga qodir bo'lgan jiddiy mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. Ssenariy – hozirgi zamon sharoitida madaniy-ma'rifiy faoliyatini

yaxshilashning ham asosiy mezonini bo'lib qoldi. Binobarin, madaniy-ma'rifiy muassasalar ishini yanada takomillashtirishning muhim vazifasi – auditoriyaga goyaviy ta'sir qilishni kuchaytirishdan iboratdir. Madaniy-ma'rifiy muassasalari ssenariysi – bo'lg'usi tomoshaning so'zlar, dalildar orqali zuhur etilgan mantiqidir.

O'qituvchi, talaba va talabalardagi fikrlash jarayonini to'g'ri yo'lga solish uchun amaliyot har qanday fikrlashning negizidir, degan qoidani hisobga olish zarur. Ta'limda o'qituvchi bilim berish bilan cheklanmaydi, u talabalarning fikrlash faoliyatiga ham rahbarlik qiladi, talabalarda ishdagi mustaqillik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stiradi va shu tariqa o'rganilayotgan narsaning ongli ravishda o'zlashtirib olishga erishiladi, materialni idrok qilishlari va tushunib olishlari bilan birga, uni puxta esda saqlab qolishlari to'grisidagi ham g'amho'rlik qiladi[9:40]. Havaskorlik ssenariyning tili ravon, obrazli va ta'sirchan bo'lsa, tadbir tomoshabin qalbiga kiradi. Madaniy tadbirlar dramaturgiyasi – ssenariyda xalqimizning milliy g'oyasini hisobga olishi shart. Ssenariyning badiiy jihatdan mukammalligi, uning originalligiga erishish – tadbirning yuqori saviyada o'tishiga kafolatdir.

### XULOSA

Ssenariyni yozishda tadbir uchun pedagogning ijodkorlik mahorati muhimdir. Sababi, ssenariyga kiritilayotgan barcha jihatlar shu sahna sharoitiga moslashtiriladi. Undan tashqari, tadbirlarda qo'llaniladigan hujjatli ma'lumotlar, harakat joyini tanlash bilan uzviy bog'liq bo'lib, mahalliy ma'lumot, odatdagidek, tomoshabinga yaqin, tushunarli bo'lib, ularga his-hayajonli ta'sir etishi shart. Shuning uchun ham ssenariy yozishni o'rnatishdan oldin pedagogning o'zi ssenariy muallifi mahalliy ma'lumotlar yig'ishi, mavjud ma'lumotlar bilan atroflicha tanishish lozim.

Binobarin, pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan ijodkorlik yondashuvda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ham ega bo'lolmaydi. Yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi bolani tushuna olishi, unga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lishi, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholashi, yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etishi, pedagogik faoliyatda hamisha ilg'orligi, jamiyat taraqqiyoti hamda pedagogik jarayonda o'quvchilar ongiga singdirilayotgan ezgu g'oyalarni hayot bilan bog'lay olishi lozim.

Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar jozish qobiliyatini shakllantirish har tamonlama o'qituvchining mahoratiga bog'liq bo'ladi. Hozirgi vaqtda nafaqat havaskorlik, balkim professional tadbirlarda ham yaxshi ssenariy yozadigan mutaxassislariga ehtiyoj kattadir. Ssenariy yozadigan mutaxassislariga hamma joyda talab bor. Ularni tarbiyalash, "ustoz-shogird" ana'nalarini davom ettirish madaniyat va san'at sohasi pedagogikasining dolzarb muammolaridan ekanligidan dalolat beradi. Shu sababdan, hozirgi zamon o'qituvchisi o'z pedagogik mehnati jarayonida qator ta'lim-tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. U, avvalo, ta'lim muassasalari o'quv jarayonining asosiy tashkilotchisi. O'qituvchi ta'lim – tarbiya jarayonida hamda darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarning porloq kelajagi uchun javobgar shaxsdir. Ushbu ulkan mas'uliyat ijobiy natijalar berishi uchun o'qituvchi, avvalo, o'zining pedagogik mahoratiga tayanadi. Pedagogik mahorat shunday bir malakalar yig'indisidirki, uning natijasi o'qituvchi mehnatida va o'quvchilar xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo'lib yetishishida o'z aksini topadi. O'qituvchi o'zining qizg'in mehnati jarayonida pedagogik mahoratning quyidagi komponentlarini ma'lum darajada o'zlashtirishi lozim:

- yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarga ega bo'lishi;
- nutq madaniyatining barcha turlari va metodlarini bilishi;
- o'qituvchi qobiliyati (empatiya, perseptiv, didaktik, konstruktiv, kommunikativ, anglash) ning mohiyatini anglashi;
- aktyorlik mahoratini (mimika, pantomimika, notiqlik san'ati) egallashi;
- o'z kayfiyatini (hissiy psixik holat) boshqara olishi;
- tarbiyalanuvchilar bilan muloqot va muomala madaniyatini o'zlashtirishi;
- pedagogik texnika uslublarini o'z o'rnida qo'llay olish san'atiga ega bo'lishi.

Milliy mafkura, umummilliy dastur talablari, urf-odat va an'analar pedagogik mahorat asosida tashkil etiladigan o'qituvchi mehnatning asosiy mohiyatida o'z aksini topishi kerak. O'qituvchi mehnati doimo ijodkorlik bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun mehnatni amalga oshiruvchi o'qituvchi, avvalo, o'z mehnatini rejalashtirishda, o'zi puxta egallagan pedagogik mahoratiga va o'z ilmiga tayanishi lozim[10:162].

Madaniyat va san'at instituti talabalarining havaskorlik ssenariylar jozish qobiliyatini shakllantirishda amaliy mashg'ulotlarda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy jihatdan yanada boyitishi kerak. Seminar mashg'ulotlarida mavzularni mustahkamlab borish, amaliy mashg'ulotlarda ijodiy kechalar, mahorat darslarini yuqori darajada olib borish kerak. Shu bilan birga, amaliy mashg'ulotlarda faol va interfaktiv usullar yordamida dars o'tish, pedagogik va axborot texnologiyalardan unumli foydalanilgan holda talabalarni havaskorlik ssenariylarini yozishga qiziqtirish maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Rustamov B. Ssenariynavislik mahorati. – T. Barkamol fayz media. 2017. 204 bet. (Rustamov B. Skill of scriptwriting. – T. Perfect delightful media. 2017. 204 pages).
2. Yo'ldoshev O'.J. tahriri ostida. Umumiy pedagogika. –T.: "Fan va texnologiya", 2017. 376 bet. (Yuldashev U.J. under the wording. General pedagogy. - T.: "Science and technology", 2017. 376 pages).
3. Muhamedaliyev H. Ssenariynavislik mahorati. – T.: Musiqa. 2009. 160 bet. (Muhamedaliyev H. Skill of scriptwriting. – T.: Music. 2009. 160 pages).
4. Zufarova M. Umumiy psixologiya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010. 304 bet. (Zufarova M. General psychology. – T.: Publishing house of the National Society of philosophers of Uzbekistan. 2010. 304 pages).
5. Yo'ldoshev O'. tahriri ostida. Umumiy pedagogika. – T.: "Fan va texnologiya", 2017. 376 bet. (Yuldashev U. under the wording. General pedagogy. – T.: "Science and technology", 2017. 376 pages).
6. Xodjaev B. Umumiy pedagogika. – T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017. 416 bet. (Khadjaev B. General pedagogy. – T.: Publishing house "Sano-standard", 2017. 416 pages).
7. Pirmatov M. Ssenariynavislik. – T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. 334 bet. (Pirmatov M. Screenwriting. – T.: Innovation-Ziyo. 2020. 334 pages).
8. Jo'rayev B. Umumiy pedagogika. – Buxoro. BuxDU. 2018. 241 bet. (Zhurayev B. General pedagogy. – Bukhara. Boxdo. 2018. 241 pages)
9. Asqarova O', Nishonov M., Kurbanova Z., Muminova D. Pedagogika va psixologiya fanlarini o'qitish metodikasi. – T.: 2019. 360 bet. (Asqarova U., Nishanov M., Kurbanova Z., Muminova D. Methodology for teaching pedagogy and psychology. – T.: 2019. 360 pages).
10. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Sodiqov H.M., Primov Sh.Q., Zarmasov Sh.R. Umumiy pedagogika. T.: JDPI. 2019. 496 bet. ( Abdullaeva B.S., Khalikov A.A., Sadiqov H.M., Primav Sh.Q., Zarmasov Sh.R. General pedagogy. – T.: TDPI. 2019. 496 pages).